BOLALAR NUTQINI LINGVOMADANIY ASPEKTDA O‘RGANISH: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Iskandarov Gulbahor Turabayevna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tili va o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
gulbahoriskandarova2@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22035511
ORCID: 0000-0002-4189-2725

Annotatsiya: XXI asrga kelib tilshunoslikda tilga muloqot qilish va bilish vazifalaridan tashqari millatning madaniy belgisi sifatida qarash ham jadal sur’atda rivojlana boshladi. Madaniyatni o‘rganishda gumanitar sohalar orasida lingvistikaning o‘rni katta. Shunday ekan, madaniyatshunoslik va lingvistika o‘rtasida lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishi yuzaga keldi. U xalq madaniyatining uning tilida aks etgan hamda saqlanib kelayotgan xususiyatlarini o‘rganadi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi – ko‘p tarmoqli masala bo‘lib, bir necha fanlar kesishmasida tadqiq qilinadi. Madaniyat va tilning o‘zaro nisbatiga doir muammo hozirgi tilshunoslikdagi asosiy masalalardan biridir. Til bilan madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan yondashuvdagi mavjud ziddiyatlarga qaramasdan, til xalq madaniyatining bir qismi ekanligi qator olimlar tomonidan e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: til va madaniyat munosabati, lingvomadaniyatshunoslik, lingvistika, milliy madaniyat, tilning madaniy belgisi, bolalar nutqi, ontolingvistika, lingvomadaniy tadqiqot, madaniy xususiyatlar.

Til bilan madaniyatning o‘zaro aloqadorligi muammosini hal etish borasidagi ilk urinishlar Vilgelm fon Gumboldt asarlarida o‘z aksini topgan edi. Olim konsepsiyasining asosiy qoidalari shundan iboratki, birinchidan, moddiy va ma’naviy madaniyat tilda mujassamlashadi; ikkinchidan, har qanday madaniyat milliydir va uning milliy tusi tilda ifodalanadi; uchinchidan, har bir xalq uchun xos bo‘ladigan ichki shakl – “xalq ruhi”, uning madaniyatining ifoda etilishi tilga ham xos bo‘ladi; to‘rtinchidan, til shaxs bilan uning atrofidagi olamni bog‘lab turuvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Olim til – bu shunchaki harakat, ruh ishining tugallangan, pirovard mahsuli emas, balki u faollik, buning ustiga, ruhning uzoq davom etadigan va yana qayta takrorlanadigan ishidir, deb hisoblaydi: “Til – bu xalqlar ruhining go‘yoki tashqi ko‘rinishidir: xalqning tili uning ruhi va xalqning ruhi uning tilidir, bundan ham ko‘proq aynan bir xil bo‘ladigan boshqa narsani tasavvur qilishimiz qiyin”[1; 67-68].

M.M.Kopilenkoning ta’kidlashicha, etnolingvistika ildizlari XI asrga borib taqaladi, ya’ni mazkur fanning shakllanishi V. fon Gumboldt ishlaridan ancha ilgari boshlangan edi. Fanda qomusiy olim sifatida tanilgan etnograf, tarixchi, folklorshunos, tilshunos, “Devonu lug‘otit-turk” lug‘ati muallifi Mahmud Koshg‘ariyning qayd qilganidek, “ekstralingvistik” omillar (jug‘rofiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari, mashg‘ulot turi, turmush tarzi va boshqalar) tilga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, unda u yoki bu so‘zlar hamda iboralar mavjud bo‘lishini nazarda tutadi [4; 4].

Taniqli tilshunos Z.K.Tarlanov tilning etnos bilan chambarchas aloqadorligini belgilaydi: “Til egalarining etnik doirasidagi til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki ko‘proq xalqning xotirasi va tarixi, uning madaniyati va bilish faoliyati tajribasi, uning dunyoqarashi

va psixologiyasi, etnosni va uning o‘ziga xosligini saqlab qolish va yanada boyitish maqsadida tabiat va koinot, kasalliklar va ularni davolash usullari, odamlarning yangi avlodlarini tarbiyalash va hayotga tayyorlash to‘g‘risidagi bilimlarning avloddan avlodga o‘tib, mustahkamlanib boradigan zaxirasidir. Shu bilan til g‘oyat turli-tuman va dialektik qarama-qarshilikdagi hayotning tarixiy jihatdan qaror topadigan milliy tipini o‘zida mujassam qiladigan madaniyat shakli bo‘ladi”[10; 6].

Til nafaqat muloqot va fikr ifodalash vositasi, balki unda odamlarga tegishli qadriyatlar, ideallar, odamlarning olam haqidagi va o‘zlarining bu dunyodagi hayoti to‘g‘risidagi o‘y-xayollari o‘z aksini topadi va shakllanadi. Tilning madaniyatni saqlay olish va uni avloddan-avlodga yetkazish qobiliyati “madaniyat mahsuli” bo‘lgan tilning asosiy funksiyalaridan biridir. Aynan shuning uchun til shaxsni, milliy xarakterni, etnik umumiylikni, millatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, lingvistikada (umuman, ijtimoiy fanlarda) paradigmalar bir-birini o‘zgartirmaydi, biroq biri boshqasini to‘ldiradi, ayni paytda biri ikkinchisiga e’tibor bermagan holda birga yashaydi. An’anaviy tarzda ilmiy paradigma uch turga ajratiladi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik[12; 4].

Antropotsentrik paradigma bu tadqiqotchilar diqqatining obyektdan subyektga o‘zgarishi, ya’ni insonning til ichida va tilning inson ichida tahlil qilinishidir. I.A.Boduen de Kurtene so‘zlari bilan aytganda, “til faqat muayyan lisoniy jamiyatni tashkil qiluvchi individ yoki shaxslarning miyalarida, ko‘ngillarida, faqat individual psixikalarda mavjud”[5; 6].

Tilga antropotsentrik yondashuv inson va uning madaniyatdagi o‘rni masalasida fanda burilish hosil qildi. Bugungi kunda mazkur g‘oya tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Y.S.Stepanov tilning murakkab mohiyatini yoritish uchun uni bir necha obrazlar ko‘rinishida taqdim qiladi, lekin tilning barcha qirralarini bu obrazlarning hech biri to‘liq namoyish etib berolmaydi: til – individning tilidir; til – til oilalari a’zosi; til – struktura; til – tizim; til – tur va xususiyat; til – kompyuter; til – fikrlar makoni, ya’ni til insonning murakkab kognitiv faoliyatidir[12; 5].

Shaxs nutqiy vaziyatlar kesishmasida o‘zining muayyan madaniyat va madaniy an’analarga mansubligini turli-tuman obrazlar orqali amalga oshiradi: jismoniy *“Men”*, ijtimoiy *“Men”*, intellektual *“Men”*, emotsional *“Men”*, nutqiy fikrlovchi *“Men”*. Shaxsiyatning bunday markazlashtirilishi turli shakllarga ega. Masalan, emotsional *“Men”* turli ijtimoiy-psixologik rollarda namoyon bo‘lishi mumkin. Istalgan shaxsning *“Men”*iga ta’sir o‘tkazib, adresat shaxsiyatining boshqa tomonlariga ta’sir ko‘rsatish mumkin. Shunday qilib, shaxs nutqi yordamida ko‘p qirrali kommunikatsion aloqaga kirishadi, bu nutqiy muloqot muayyan strategiya va taktikalariga moslashtirilgan holda kommunikantlarning ijtimoiy va psixologik rollari, axborotga yuklangan ma’lumotning madaniy mazmuniga moslashtiriladi. Inson dunyoni o‘zini bilish, o‘zining nazariy va amaliy faoliyati orqali taniydi.

Taniqli o‘zbek tilshunosi N.Mahmudov qayd etishicha, “tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini insonning o‘ziday, tildan va nutqni yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan alohida tasavvur etib bo‘lmaydi” [7; 6-7].

Bolalar nutqi hodisalariga lingvomadaniy jihatdan qiziqish XX asrning oxirlarida vujudga keldi. Masalan, Chelyabinskda xitoylik tadqiqotchi Chjin Si “Lisoniy idrokda bola obrazi” (turli lingvomadaniyatlar misolida) mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida bola atamasining turli tillarda nominativ-semantik jihatdan xoslanishini kuzatadi[14]. Xususan, assotsiativ tajriba natijalari tahlili

asosida rus tilida ham, xitoy tilida ham birinchi navbatda, bolalar qiyofasidagi o‘xshashliklar, ichki va tashqi fazilatlar, ijtimoiy maqom, tipik xulq-atvordagi farqlar belgilanadi. Asosiy tafovut muayyan jamiyatdagi bolani tarbiyalashga qaratilgan an’analar, urf-odatlar, go‘zallik etaloni bilan bog‘liqligi qayd etilgan.

Bola obraziga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarga uning atrofidagi muhit, odamlar, narsalar bolaning xatti-harakatlariga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Har ikki xalq maqollarida o‘ziga xos mushtarak lingvomadaniy jihatlar borligi, ayniqsa, “ona – bu bola uchun eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi” va “bolalarni qattiqqo‘llik bilan tarbiyalash kerak” degan qarashlarning mavjudligi ta’kidlangan.

Rus va xitoy xalq ertaklari o‘rganilganda har ikkisida ham bola va ota-onasi (yoki ularning o‘rnini bosuvchi (o‘gay) ota-onalar) o‘zaro munosabatida o‘xshash xususiyatlar mavjudligi kuzatiladi. Lekin xitoy ertaklarida bolaning ota-onaga to‘liq bo‘ysunishi tasvirlansa, rus ertaklarida bu holat mavjud emas.

Rus tilshunosligida M.M.Ugryumov “Nominativ birliklarda bolaning yoshi: lingvomadaniy aspekt (O‘rta Priob lahjalari misolida)”[11; 37-41] ilmiy maqolasi orqali etnik madaniyatni tarjima qilish vositasi sifatida til birliklarini lingvomadaniy tahlil qilgan. U O‘rta Priob lahjalarida bolani atashga qaratilgan til birliklarida etnik madaniyatni namoyish qilish vositasi sifatida tahlil qiladi. Bunda u bolalarni atash uchun xizmat qiluvchi so‘zlarning yosh nuqtayi nazaridan yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar, uch yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smir yoshidagilarga bo‘lib guruhlaydi.

Bolalar nutqi lingvomadaniy jihatdan tadqiqot obyekti bo‘lish birga bolalarni atovchi birliklarning o‘zini ham tahlil qilishga bag‘ishlangan izlanishlar mavjud. Rossiyalik tadqiqotchilar I.I.Chumak-Jun, S.V.Kovalyova, M.I.Sayenkolarning “Bolalar folklor matnining lingvopragmatik va lingvomadaniy aspektlari” ilmiy maqolasi bolalar folklor matni tilini lingvopragmatika va lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan[16; 98-107]. Mualliflar e’tibori bolalar folklorida muhim bo‘lgan alla janriga qaratiladi. Shu bilan birga bolani uxlatish bilan bog‘liq milliy marosimlar ham o‘rganiladi. Folklor matnlarida ifodalangan kommunikativ jarayonni tahlil qilish bolaning kelajakdagi baxtli hayoti “dasturi” yaratilishi va bolaga u mansub bo‘lgan milliy-madaniy xususiyatlar haqida axborot qanday “uzatilishini” kuzatishga imkon beradi. Matnlarning janriy xususiyatlari – bu alla aytuvchining ijobiy kommunikativ niyatlari va o‘ziga xos informativligi. Ajdodlar o'rtasidagi chuqur tarixiy aloqalarni, avlodlarning madaniy ustuvorliklari va qadriyatlari uzviyligini saqlab qolgan holda, bolalar folklori janrlari dunyoni bilish natijasi sifatida ma’naviy, axloqiy va estetik qadriyatlarni uzatadi, bu qadriyatlar insonning til obrazlari va kommunikativ tajribasida mustahkamlanadi.

E.A.Flaykning “Ona tili haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda lingvomadaniyatshunoslik yondashuvini qo‘llash” nomli ilmiy maqolasida o‘quvchining lisoniy qobiliyati shaxs sifatida shakllanishida lingvomadaniy yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati, bu yondashuvning zamonaviy rus tili ta’limida kompetentlik yondashuvi bilan bog‘liqligi asoslanadi. Lingvomadaniy kompetensiyaning kommunikativ va lingvistik kompetensiyalar bilan o‘zaro aloqasi ko‘rib chiqiladi, o‘quvchilarning lisoniy shaxsini shakllantirish uchun turli shakl va metodikalardan foydalangan holda lingvistik masalalarni hal qilish bo‘yicha takliflar beriladi [13]. Mazkur maqolada o‘quvchining lingvokulturologik yondashuv asosida til shaxsini shakllantirishining nazariy va amaliy ahamiyati, bu yondashuvning zamonaviy rus tili ta’limida kompetentlik yondashuvi bilan bog‘liqligi asoslanadi.

N.S. Starjinskayaning “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda lingvomadaniyatshunoslik yondashuvini yaqin qarindosh tillar misolida amalga oshirishning metodik yo‘nalishlari” ilmiy maqolasi ham bolalar nutqini lingvomadaniy jihatdan o‘ziga xos tadqiq etishga imkon beradi [9]. Maqolada rus tilida so‘zlashuvchi maktabgacha

yoshdagi bolalarda belorus tilida nutqni rivojlantirishga qaratilgan lingvomadaniy yondashuvni amalga oshirishning metodik yo‘nalishlari yoritilgan. Jumladan, milliy madaniyatning qadriyatlari va realiyalarini anglash; bolalar tomonidan belorus tilining milliy jihatdan belgilangan birliklarini o‘zlashtirish; belorus tilini madaniyatlar dialogi asosida o‘qitish kabi yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatiladi.

V.N.Matonin, E.N.Yegorova, N.I.Bedinalar “Bolalar so‘z ijodkorligining lingvomadaniy aspektlari” ilmiy maqolasida bolalar nutqining o‘ziga xos jihatlari bilan birga bolaning so‘z ijodkorligi ma’lum kommunikativ vaziyatlarda tahlil etiladi [6]. Maqolada bolalar so‘z ijodkorligini lingvokulturologik jihatdan empirik tadqiq etish natijalari keltiriladi. 1981-2001-yillar oralig‘ida Solovki orollarida yashagan Matoninlar–Morozovlar ko‘p bolali oilasiga oid kundalik yozuvlarni tahlil qilish asosida turli yosh davrlarida bolalarning so‘z yasash usullari hamda tafakkur xususiyatlari tizimlashtirilgan, shuningdek atrof-muhit haqidagi taassurotlarning nutqda aks etish qonuniyatlari yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Leksik material Matoninlar–Morozovlar oilasidagi o‘gay aka-uka va opa-singillarning nutqiy rivojlanishini kuzatish natijasida to‘plangan: Valya (1981-yilda tug‘ilgan (keyinchalik y.t.)), Katya (1983-y. t.), Masha (1982-y. t.), Vitalik (1984-y. t.), Aleksandra (1986-y. t.) va Nikolay (1993-y. t.). Shuningdek, “Beshinchi kvartiradan ovozlar” kitobi qahramonlari do‘stlashgan yoki muloqot qilgan bolalarning nutqiy ifodalari ham tadqiqot materialiga jalb etilgan.

Bolalar ongining yaxlitligi va o‘zini ifodalashdagi bevositalik shaxsning rivojlanishi va shakllanishi jarayonida tafakkur bilan til o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik haqida mulohaza yuritishga undaydi. Tadqiqot natijasida ikki yoshdan besh yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqining yoshga xos xususiyatlari aniqlangan. Ushbu davrda bolalarga urug‘-qabila jamoalari madaniyatiga xos bo‘lgan animistik va totemistik dunyoqarash unsurlarining namoyon bo‘lishi xosdir. Bu, xususan, voqelikni ramziy idrok etishda, o‘yinchoqlar va maishiy buyumlarni jonlantirishda ifodalanadi. Mazkur yosh bosqichida so‘z ijodkorligining quyidagi shakllari ajralib turadi: so‘z qo‘shish, til vositalarini iqtisod qilish, tovushga taqlid qilish yoki buyumning tanish funksiyasiga analogiya asosida neologizmlar yaratishda mavjud leksik shakllardan foydalanish. Bolalar nutqidagi alohida hodisalardan biri sifatida tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladigan kontaminatsiyani qayd etish mumkin. Besh–olti yoshda maktabgacha yoshdagi bolalar fikrlarini ko‘pincha qisqa fantastik hikoyalar, masallar yoki ertaklar shaklida ifodalaydilar. Bu til o‘yini xarakteriga ega bo‘lgan eng qulay muloqot shaklidir. O‘smirlik davrida esa nutqda jargon ifodalar ustunlik qila boshlaydi, kattalarga taqlid qilish holatlari, terminologiya va notanish so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanishi kuzatiladi.

Bola qisqa vaqt ichida oddiy so‘z birikmalaridan ma’no va grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gaplargacha o‘tadi va ravon nutqqa erishadi. Bolalar o‘z ona tilining grammatikasini maktab yoshiga yetmasdan, maxsus o‘qitilmasdan, o‘z nutqida morfologik va sintaktik qonuniyatlarga to‘liq rioya qilgan holda o‘zlashtiradi. (PDF) Bolalar nutqida lingvomadaniy elementlarning shakllanishida til muhitining roli [2]. O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy tadqiqotlar oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Jumladan, Z.Soliyeva, D.Xudoyberganova, N.Mahmudovning tadqiqotlarida lingvomadaniyatshunoslikning mohiyati va bu sohadagi muammolar ko‘rsatib berilgan[12; 25].

Biz tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi xalq maqollari, matallar, frazeologik birliklar va boshqa til birliklari misolida shu til va madaniyat tarixi haqida muayyan axborot tashilishini yaxshi bilamiz. Biz, o‘zbeklar, o‘z nutqimiz orqali o‘zbekona muloqot xulqini namoyon etamiz.

Shunday ekan, O‘zbekiston dunyoga, dunyo xalqlari O‘zbekistonga nazar tashlayotgan bugungi kunda biz bilan muloqotning istalgan tur va usulida muloqotda bo‘lishni istovchi

davlatlar va millatlardan o‘zbeklarning o‘ziga xos muloqot xulqini ham sir tutmaymiz, aksincha, o‘zbeklar bilan muloqot chog‘ida nimalarga e’tibor berish lozimligini o‘zimizga va boshqalarga o‘rgatamiz[8; 4].

Xalqning o‘z taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqelik to‘g‘risidagi til birliklarida qayd qilingan tasavvurlarining “qo‘riqlovchisi” bo‘lgan, olam haqidagi axborotlarning so‘zning bir tizimli ma’nolariga solingan ushbu fan dunyoni til ta’sirida o‘ziga xos tarzda idrok qilinadi. Boshqacha aytganda, muayyan xalq tilini o‘rganish bilan uning turmushi, madaniyati, tarixini ham o‘rganish mumkin. Har bir etnos olamni o‘z tasavvuri, mentaliteti, milliy ongi va tushunchalari ta’siri orqali ko‘radi. Bundan tashqari, xalq turmushining bir qator ekstralingvistik omillari: xalq hayotining jug‘rofiy va iqlimiy shart-sharoitlari, uning turmush tarzi, xo‘jalik yuritish tipi, din-u e’tiqodlari, an’analari va urf-odatlari ham xalqning dunyoni tushunish tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi; aynan shuning uchun bir xalqning tevarak-atrofidagi voqelikni idrok etishi boshqa xalqning shu xildagi idrok qilishidan farqlanib turadi.

N.V.Chernova diqqatini bolalar nutqidagi lingvomadaniy xususiyatlarning gender jihatdan farqlanishiga qaratar ekan, u bolalar nutqining lingvokulturologik jihatidagi xususiyatlarini tadqiq etadi [15]. Bolalarda jinsiy identifikatsiyaga bog‘liq holda til orqali shakllanadigan olamning lisoniy manzarasini vujudga keltirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, o‘g‘il bolalar va qizlarning nutqiy xulq-atvoridagi leksik, semantik hamda pragmatik farqlar tahlil qilinadi.

Alohida e’tibor madaniy va ijtimoiy omillarning gender jihatdan belgilangan nutqiy strategiyalarni shakllantirishdagi ta’siriga qaratiladi. Tezisda bola nutqi nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatda mustahkamlangan madaniy me’yorlar va gender rollarini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi asoslab beriladi. Bolalar tomonidan tilni o‘zlashtirish jarayonida ayrim o‘xshash jihatlar bilan bir qatorda, muayyan tilning o‘ziga xos xususiyatlari, uning tuzilishi va mavjudlik shakllari madaniy-ma’naviy vaziyat bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tili sharqona an’analarni o‘zida aks ettiradi va muloqot orqali bolalarga asta-sekin singdiriladi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘z nutqida sharqona odob-axloqning salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish kabi o‘ziga xos atributlaridan foydalanishni o‘rganadilar. O‘zbek bolalarining o‘ziga xos xususiyatlarida bunday xarakterdagi vaziyatli iboralar ko‘p uchraydi [3].

Bola muloqot maqsadidan qat’i nazar, fikrni ifodalash lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida muayyan madaniyatga xos nutqiy odat belgilarini ham qabul qila boradi. Ontogenez jarayonida ijtimoiy muhitning amaliy nutqiy faoliyat rivoji uchun qanchalik katta ahamiyatga egaligini namoyish etadi.

Odamlarning muloqot qilishida yordam beradigan asosiy vosita til bo‘lib, bunda madaniyatning ta’siri ham beqiyos. Madaniyat tilda mujassamlashgan ma’nolarning tarixiy jihatdan yetkaziladigan modeli, til bilan madaniyatning o‘zaro aloqasini ijtimoiy hayotda o‘ylangan narsalarning amalga oshiriluvchi usuli.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 67-68.
2. Искандарова Г.Т. https://www.researchgate.net/publication/369795359_Rol_azykovoj_sredy_v_formirovanii_lingvokulturologiceskih_elementov_v_detskoj_reci
3. Iskandarova G.T. Bolalar nutqining kommunikativ muhitda rivojlanishi haqida // https://www.researchgate.net/publication/370731521_O_razvitii_rechi_detey_v_kommunikativnoy_srede
4. Копыленко М.М. Основы этнолингвистики. – Алматы: Евразия, 1995. – С. 4.

5. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М., 2001. – С. 6.
6. Матонин В.Н., Егорова В.Е., Бедина Н.И. Лингвокультурологические аспекты детского словотворчества // Научные исследования и разработки. Современная коммуникативистика, том 7, №4, 2018. https://naukaru.ru/ru/nauka/article/20234/view
7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
8. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент: 2000, – Б. 4.
9. Старжинская Н.С. Методические направления реализации лингвокультурологического подхода к развитию речи дошкольников на близкородственном языке// http://elib.bspu.by/handle/doc/23952
10. Тарланов З.К. Язык. Этнос. Время: Очерки по русскому и общему языкознанию. – Петрозаводск: Изд-во Петрозаводского ун-та, 1993. – С. 6.
11. Угрюмова М.М. Возраст ребёнка в номинативных единицах: лингвокультурологический аспект (на материале говоров Среднего Приобья) // Вестник Томского государственного университета. – 2014, № 384. С.37-41.
12. Усманова Ш. “Лингвокультурология” фанидан маърузалар курси. – Тошкент, 2014. – Б. 4.
13. Флайк Е.А. Реализация лингвокультурологического подхода в формировании представления о родном языке // https://multiurok.ru/files/riealizatsiia-lingvokul-turologichieskogo-podkhoda-pri-formirovanii-priedstavlieniia-o-rodnom-iazykie.html
14. Цзинь Чжи. Образ ребёнка в языковом сознании (на примере разных лингвокультур). Дисс... канд. филологических наук. – Челябинск. 2019. – С.255.
15. Чернова Н.В. Гендерные особенности лингвокультурологического аспекта детской речи // https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/17812/21728
16. Чумак И.И., Ковалева С.В., Саенко М.И. Лингвопрагматические и лингвокультурные аспекты детского фольклорного текста // Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования. – 2022. Т. 8. № 1. – С. 98-107.